



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 06 | pp. 62-68 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MOLIYAVIY HISOBOT – INVESTORLAR NUQTAI NAZARIDAN



I.Boymurodov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliyaviy hisobotning investorlar nuqtai nazaridan iqtisodiy mazmuni va axborot qiymati tadqiq etilgan. Tadqiqotda moliyaviy hisobotning asosiy vazifasi investorlar va boshqa tashqi foydalanuvchilarni iqtisodiy qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ishonchli axborot bilan ta'minlashdan iborat ekanligi asoslangan. Shuningdek, buxgalteriya balansi hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning investorlar qaror qabul qilish jarayonidagi o'rni va o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan. Aktivlarni baholashda tarixiy qiymat usulining ustunliklari, haqqoniy qiymat asosida baholashning cheklovlari, shuningdek, gudvill va qayta baholash natijalarining iqtisodiy mazmuni investorlar manfaatlarini nuqtai nazaridan yoritilib tegishli takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobot, investor, buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar, tannarx, haqqoniy qiymat, gudvill, iqtisodiy naf, kapital bozori, investitsiya qarorlari, axborot foydaliligi, resurslar taqsimoti.

Аннотация. В данной статье рассматривается экономическое содержание и информационная ценность финансовой отчетности с точки зрения инвесторов. Исследование основано на том факте, что основная задача финансовой отчетности — предоставление инвесторам и другим внешним пользователям достоверной информации, необходимой для принятия экономических решений. Также анализируется роль и взаимосвязь баланса и отчета о финансовых результатах в процессе принятия решений инвесторами. Выделены преимущества метода исторической стоимости при оценке активов, ограничения оценки по справедливой стоимости, а также экономическое содержание деловой репутации и результатов переоценки с точки зрения интересов инвесторов, и разработаны соответствующие предложения.

Ключевые слова: Финансовая отчетность, инвестор, баланс, финансовые результаты, себестоимость, справедливая стоимость, деловая репутация, экономическая прибыль, рынок капитала, инвестиционные решения, информационная полезность, распределение ресурсов.

Ключевые слова: Finansovaya otchetnost, investor, buxgalterskiy balans, finansovye rezultati, istoricheskaya stoimost, spravedlivaya stoimost, gudvill, ekonomicheskaya vigoda, rinoq kapitala, investitsionnye resheniya, poleznost informatsii, raspredeleniye resursov.

Abstract. This article explores the economic substance and informational value of financial reporting from the perspective of investors. The study substantiates that the primary function of financial reporting is to provide investors and other external users with reliable information necessary for economic decision-making. Furthermore, the role and interrelation of the balance sheet and the income statement in the investor decision-making process are analyzed. The advantages of

the historical cost method in asset measurement, the limitations of fair value measurement, as well as the economic substance of goodwill and revaluation results are elucidated from the standpoint of investors' interests, and relevant recommendations are developed.

Keywords: *Financial reporting, investor, balance sheet, financial results, historical cost, fair value, goodwill, economic benefit, capital market, investment decisions, usefulness of information, resource allocation.*

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy hisobot korxonada faoliyati to'g'risidagi iqtisodiy axborotlarni tashqi foydalanuvchilarga yetkazib beruvchi muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, investorlar va kreditorlar kapital qo'yilmalarini amalga oshirishda aynan moliyaviy hisobot ma'lumotlariga tayanadilar. Shu sababli moliyaviy hisobotning mazmuni, sifati va axborot qiymati iqtisodiyotda resurslarni samarali taqsimlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining kontseptual asoslarida umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotning asosiy vazifasi mavjud va potentsial investorlar hamda kreditorlarga iqtisodiy qaror qabul qilish uchun foydali bo'lgan axborotni taqdim etishdan iboratligi qayd etilgan. Biroq amaliyotda investorlar uchun qaysi axborot muhim ekanligi va moliyaviy hisobot qay tarzda shakllantirilishi lozimligi bo'yicha ilmiy yondashuvlar hali ham munozarali bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada moliyaviy hisobotning investorlar nuqtai nazaridan nazariy asoslari tahlil qilinib, uning iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning vazifalari hamda ularning o'zaro uyg'unligi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi

Umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotning maqsadi — hisobot beruvchi sub'yekt haqida mavjud va potentsial investorlar, qarz beruvchilar va boshqa kreditorlar uchun korxonaga resurslar taqdim etish bo'yicha qarorlar qabul qilishda foydali bo'ladigan moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishdir [1]. Qaror qabul qilish uchun foydalilik tamoyili standartlarni ishlab chiquvchilar uchun "kontseptual asos" yaratish va maxsus hisobot standartlarini shakllantirishda asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qildi. Biroq, shu kungacha iqtisodiy agentlar (foydalanuvchilar) o'z qarorlarini qabul qilishda aynan qanday ma'lumotlarga muhtoj ekanligi va ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun moliyaviy hisobot qanday tuzilishi kerakligini o'rganuvchi nazariy tadqiqotlar juda kam o'tkazilgan. Foydalanuvchilar duch keladigan qaror qabul qilish muammolarini tahlil qilish va ularga aynan qanday ma'lumotlar kerakligini bilish — moliyaviy hisobot modelini yaratish va keyinchalik foydalanuvchilarning ehtiyojlariga aniq yo'naltirilgan maxsus hisobot standartlarini ishlab chiqish yo'lidagi muhim birinchi qadamdir.

Moliyaviy hisobot nazariyasi va uning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi o'rni ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan, William Paton va A.C. Littleton buxgalteriya hisobining nazariy asoslarini shakllantirib, moliyaviy hisobot sub'yekt faoliyatini aks ettirishi lozimligini ta'kidlagan [2].

Franco Modigliani va Merton Miller tomonidan ishlab chiqilgan kapital bozori nazariyasida mukammal bozor sharoitida axborot barcha ishtirokchilar uchun bir xil

darajada mavjud bo'lishi nazarda tutilgan. Biroq mazkur yondashuvda buxgalteriya axborotining mazmuni va uning investorlar qarorlariga ta'siri yetarlicha ochib berilmagan[3].

Shu bilan birga, Xiao-Jun Zhang moliyaviy hisobot sifati va investitsiyalar samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilib, yuqori sifatli moliyaviy axborot iqtisodiy resurslar taqsimotini yaxshilashini asoslab bergan[4].

Financial Accounting Standards Board va International Accounting Standards Board kontseptual asoslarida qaror qabul qilish uchun foydali axborot taqdim etish moliyaviy hisobotning ustuvor vazifasi sifatida belgilangan.

Mahalliy olimlarimizdan Iqtisodiyot fanlari doktori, professor A.Z.Avlokulovning fikricha, xalqaro standartlar asosida tuziladigan moliyaviy hisobotlar tashkilotni samarali boshqarishda zarur hisoblanadi. Xalqaro standartlarga o'tishdan asosiy maqsad xalqaro bozorga chiqish hamda investitsiyalarni jalb etishdir. Shuningdek xalqaro standartlar mamlakat iqtisodiyotini sifat jihatdan rivojlantirishga ham muhim hissa qo'shadi. Bu jarayonda qulay investitsion muhit, kompaniyalar faoliyati ochiqligi, boshqaruvning aktsiyadorlar oldidagi hisobdorligi, zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarining joriy qilinishi aktsiyadorlik jamiyatlarining rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi[5]

MHXS bo'yicha moliyaviy hisobotlarning ahamiyati masalalariga iqtisodchi olimlarning asarlarida muhim e'tibor qaratilgan. Xususan, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent S.Tashnazarovning fikricha, hisob va hisobotni xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, shu asosda moliyaviy hisobotning dunyo miqyosida uyg'unligiga erishish, ilg'or tajribalardan milliy darajada samarali foydalanish barcha mamlakatlar uchun eng dolzarb masaladir[6].

N.Xajimuratov Moliyaviy hisobotning ishonchliligi tashqi va ichki foydalanuvchilarga taqdim etiladigan axborotlarning aniqlik darajasi bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'yekt faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida oqilona iqtisodiy qarorlar qabul qilishni ta'minlashga xizmat qilishini yoritib bergan[7].

I.Ibragimova moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot aks ettirilgan korxonalar aktivlari, majburiyatlari va xususiy kapitaliga doir balans moddalarini moliyaviy buxgalteriya hisobida tan olish, baholash va hisobotda aks ettirish usul va uslublarini ilg'or xorijiy tajribalar va xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish asoslab berilgan[8].

Yuqoridagi olimlar o'zlarining tadqiqotlarida asosiy e'tiborni umumiy maqsadli moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish masalalariga qaratishgan. Bizning tadqiqotimiz investorlar oqilona qarorlar qabul qilishga imkon yaratish maqsadida moliyaviy hisobot elementlarini hisobga olish masalalariga qaratilgan.

Tahlil va natijalar

Mazkur maqolada tashkilotlar va qaror qabul qiluvchi investorlardan iborat iqtisodiyot kontekstida olib borilgan. Tashkilotlar — qiymat yaratish uchun moliyaviy resurslardan foydalanadigan iqtisodiy birliklardir. Investorlar esa kelajakda naf olish maqsadida moliyaviy resurslarni yetkazib beradilar. Bizning fikrimizcha, tartibga solish talablariga ko'ra, tashkilotlar o'zlarining tadbirkorlik faoliyati to'g'risida moliyaviy hisobotlar chiqaradilar va bu investorlar uchun iqtisodiy qarorlarini qabul qilishda muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

Ta'kidlash joizki, investorlar bozor savdosi orqali moliyaviy resurslarni yetkazib beradilar, bu esa tashkilotlar uchun faoliyat yuritishda zarur bo'lgan resurs hisoblanadi. Moliyaviy hisobot ma'lumotlari tashkilotlarga investitsiya kiritishning maqsadga muvofiqligini baholash uchun ishlatiladi. Shu bois, iqtisodiyotda resurslar taqsimotining samaradorligi ko'p jihatdan moliyaviy hisobot orqali qaror qabul qilish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarning qanchalik samarali taqdim etilishiga bog'liq.

Investorlarning qarorining tub negizida kelajakdagi kutilayotgan foyda evaziga hozirgi moliyaviy resurslardan voz kechish yoki kechmaslik maqsadi yotadi. Investorlar qarorlari uchun eng muhim ma'lumot — har bir tashkilotning jalb qilgan resurslarni iqtisodiy nafga aylantira olish qobiliyatidir. Mazkur holatda muammo shundaki, tashkilotning qobiliyatini bevosita kuzatishning imkoni yo'qligidadir va uni aniqlash uchun amalga oshirilgan operatsiyalar ma'lumotlariga tayaniladi. Shunga ko'ra, bizning fikrimizcha moliyaviy hisobotning qamrovi amalga oshirilgan operatsiyalardan olingan ma'lumotlar bilan cheklanadi deb hisoblaymiz.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy hisobotning investorlar uchun asosiy vazifasi tashkilotning iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini ko'rsatishdan iborat. Investorlar qaror qabul qilishda, avvalo, quyidagi ikki muhim omilga e'tibor qaratadishlar lozim deb o'ylaymiz:

1. Tashkilot tomonidan jalb qilingan resurslar hajmi;
2. Ushbu resurslar asosida yaratilgan iqtisodiy qiymat.

Shu nuqtai nazardan buxgalteriya balansi investorlar tomonidan taqdim etilgan resurslar xarajatini aks ettirsa, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ushbu resurslardan foydalanish natijasida yaratilgan qiymatni ifodalaydi.

Birinchi — investorlar uchun tashkilot faoliyatini moliyalashtirish xarajati bo'lsa, ikkinchi — ma'lum bir davrdagi faoliyatdan olingan nafdir. Ushbu ikki jihatni birlashtirgan holda, investorlar "xarajat-naf" muvozanatini, ya'ni tashkilotning o'z iqtisodiy funksiyasini bajarish qobiliyatini baholaydilar. Bundan kelib chiqadiki, moliyaviy hisobot kamida ikkita komponentdan iborat bo'lishi kerak: biri investorlar resurslar taqdim etishda ko'radigan xarajatlarni ifodalaydi (buxgalteriya balansi), ikkinchi esa resurslardan foydalanish natijasida olingan nafni ifodalaydi (moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot). Investorlar tashkilotning aniqlangan qobiliyatiga asoslanib iqtisodiy qarorlarini qabul qiladilar, bu esa butun iqtisodiyot uchun umumiy qiymat yaratishni maksimal darajada oshiradigan resurslarning samarali taqsimlanishiga olib keladi.

Bizning fikrimizcha moliyaviy hisobotning asosiy vazifasi korxonaning bozor qiymatini emas, balki uning iqtisodiy faoliyati haqida qaror qabul qilish uchun zarur axborotni taqdim etishdan iborat. Shu sababli aktivlarni haqqoniy qiymat bo'yicha baholash har doim ham investorlar uchun foydali axborotni ta'minlamasligi mumkin.

Birinchi, printsipl jihatdan, barcha aktivlar — moddiy yoki boshqa shaklda bo'lishidan qat'i nazar — agar tashkilot ularni qo'lga kiritish uchun moliyaviy resurslar sarflagan bo'lsa, tan olinishi tannarx bo'yicha baholanishi kerak.

Ikkinchi, biznes birlashuvi natijasida va ichki yaratilgan gudvillga turlicha yondashish lozim. Garchi tashkilotga statik nuqtai nazardan qaralganda ikkalasi bir xil tuyulsa-da, operatsiyaning "kirish" va "chiqish" qismlarini farqlashi kerak bo'lgan

investorlar uchun ular iqtisodiy jihatdan farq qiladi. Biznes birlashuvi natijasida yuzaga kelgan gudvill investitsiya xarajatlarining bir qismi, ya'ni "kiruvchi resurs" hisoblanadi va shunday tan olinishi lozim; bu borada sotib olingan gudvill sotib olingan tashkilotning aniqlangan aktivlariga kiritilgan investitsiyalardan farq qilmaydi. Bundan farqli o'laroq, ichki yaratilgan gudvill natijaga asoslangan tushunchadir; u tan olingan aktivlar tannarxidan yuqori bo'lgan kutilayotgan qiymat yaratilishi bilan bog'liq. Ushbu nazariya kutilayotgan qiymat yaratilishini, jumladan ichki yaratilgan gudvillni tan olishni qo'llab-quvvatlamaydi.

Uchinchidan, balansning aktivlar tannarxini hisobga olishdagi rolga urg'u bergan holda, nazariya na joriy (haqqoniy) qiymatni, na foydalanish qiymatini baholash asosi sifatida qabul qilmaydi, chunki bunday ma'lumot investorlar uchun "xarajat-naf" muvozanatini buzib ko'rsatadi. Bundan tashqari, balansni tashkilotni ichki qiymatini aks ettiradigan qilib loyihalash uchun hech qanday asos yo'q. Ba'zi foydalanuvchilar tashkilotlarning balans qiymati va bozor qiymati o'rtasidagi katta farqdan xavotir bildirishsa-da, bu hodisa foydali investitsiya loyihalarini izlashga bo'lgan iqtisodiy rag'batlar natijasi bo'lishi mumkin va shu shuning o'zi balansning noto'g'ri axborot taqdim etishidan dalolat bermaydi.

To'rtinchidan, nazariya, umuman olganda, inson resurslarini tan olishni qo'llab-quvvatlamaydi, chunki ular moliyaviy hisobotni tayyorlash kontseptsiyasiga muvofiq "nazorat" ning mavjud emasligini hisobga olgan holda aktiv sifatida tan olinmaydi hamda investorlar tomonidan taqdim etilmaydi. Shunga qaramay, nazariya inson resurslarini rivojlantirish uchun sarflangan moliyaviy mablag'lar, printsiplial jihatdan, yana tannarx bo'yicha tan olinishi kerakligini ko'rsatadi.

Alohida ta'kidlash joizki, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot investorlar uchun erishilgan nafni (foydani) aks ettirishga qaratilishi kerakligidan kelib chiqib, buxgalteriya foydasi tushunchasiga iqtisodiy mazmun beradi. Xususan, foyda — ma'lum bir davrda yaratilgan va investorlarning iste'mol qobiliyatini haqiqatda oshiradigan qiymat sifatida ta'riflanishi kerak. Oxir-oqibat, biror-bir buxgalteriya moddasining foyda ekanligi investorlarning farovonligiga asoslanib aniqlanishi lozim.. Masalan, kiruvchi resurs bo'lib qolayotgan operatsion aktivlarni (masalan, bino, inshoot va uskunalar) qayta baholash natijasida yuzaga keladigan daromadlar qiymat yaratish hisoblanmaydi va investorlarning iste'mol qobiliyatiga bevosita ta'sir qilmaydi. Shuningdek, biznes birlashuvi natijasida yuzaga kelgan gudvillning qadrsizlanishi ham) foyda ta'rifiga javob bermaydi. Gudvillning qadrsizlanishi joriy davrda haqiqatda erishilgan qiymatga emas, balki kelajakda kutilayotgan qiymat yaratilishiga taalluqlidir. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot kelajakdagi qiymat yaratilishini aks ettirish uchun mo'ljallanmaganligidan kelib chiqsak, kelajakdagi qiymat o'zgarishlarini tan olish asossizdir va bunday ma'lumotlarning kiritilishi hisobotdagi foydaning asl ma'nosini o'zgartirib yuboradi.

Bizning fikrimizcha investorlarning "xarajat-naf" tahliliga xizmat qilish uchun aktivlar tannarx bo'yicha baholanishi kerak. Joriy qiymatdan yoki tarixiy qiymatdan boshqa har qanday baholash asosidan foydalanish investorlar haqiqatda qilgan xarajatlar haqidagi ma'lumotni buzib ko'rsatadi va shu bois tashkilotning qiymat yaratish bo'yicha

haqiqiy qobiliyati haqidagi xulosalarni buzib ko'rsatadi. Ya'ni, tarixiy qiymatdan tashqari baholash asoslari investorlar qarorlariga bevosita aloqador emas.

Ta'kidlash zoizki so'nggi o'n yilliklarda haqqoniy qiymat asosi tobora ko'proq joriy etilmoqda. Biroq, haqqoniy qiymat asosida aktivlarning balans qiymati - xuddi shu tashkilotning faoliyatini keyingi vaqt davomida takrorlagan gipotetik tashkilotning investitsiya xarajatlarini ifodalaydi va u investorlar qarorlari uchun xizmat qilmaydi. Investorlarni gipotetik tashkilot emas, balki amaldagi tashkilotning qilgan ishlari bo'yicha qobiliyati qiziqtiradi. Bu yerda alohida e'tibor talab qiladigan jihati shundan iboratki, investorlarni birinchi navbatda menejerlarning investitsiya loyihalarini qachon boshlashni belgilash qobiliyati hamda ushbu loyihalarni keyinchalik amalga oshirish mahorati qiziqtiradi. Aynan tarixiy qiymat bunday qobiliyatlarni eng haqqoniy tarzda aks ettiradi, haqqoniy qiymat o'lchovlari esa investorlarning to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy hisobot investorlar uchun tashkilotning iqtisodiy faoliyatini baholashda asosiy axborot manbai hisoblanadi. Investorlar kapital qo'yimlarini amalga oshirishda, eng avvalo, tashkilotning jalb qilingan resurslardan qay darajada samarali foydalanib, iqtisodiy naf yaratish qobiliyatiga e'tibor qaratadilar. Shu nuqtai nazardan moliyaviy hisobot tashkilotning bozor qiymatini emas, balki uning real iqtisodiy faoliyati natijalarini aks ettirishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot investorlar uchun bir-birini to'ldiruvchi axborot manbalari hisoblanadi. Buxgalteriya balansi investitsiya qilingan resurslar va ularning qiymatini ifodalasa, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot mazkur resurslardan foydalanish natijasida yaratilgan iqtisodiy nafni aks ettiradi. Investorlar aynan ushbu ikki hisobot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik orqali tashkilotning "xarajat-naf" muvozanatini baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shuningdek, tadqiqotda aktivlarni tarixiy (tannarx) qiymat asosida baholash investorlar uchun nisbatan ishonchli va qaror qabul qilishda foydali axborotni ta'minlashi asoslandi. Chunki tarixiy qiymat tashkilot tomonidan amalga oshirilgan haqiqiy investitsiya xarajatlarini aks ettiradi, haqqoniy qiymat esa aksariyat holatlarda gipotetik baholashga asoslanib, investorlarning iqtisodiy xulosalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, ichki yaratilgan gudvill, qayta baholash natijasidagi daromadlar yoki kelajakda kutilayotgan iqtisodiy naf bilan bog'liq qiymat o'zgarishlarini moliyaviy natija sifatida e'tirof etish investorlar uchun tashkilotning haqiqiy iqtisodiy samaradorligini baholashni murakkablashtiradi. Shu bois moliyaviy hisobot, avvalo, amalga oshirilgan operatsiyalar va haqiqatda yaratilgan iqtisodiy qiymatni aks ettirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, moliyaviy hisobot tizimini takomillashtirishda investorlarning axborot ehtiyojlari ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim. Moliyaviy hisobotning asosiy vazifasi investorlarga tashkilotning resurslardan foydalanish samaradorligi, investitsiya qarorlarining natijaviyligi va kelgusida iqtisodiy naf yaratish qobiliyatini baholash uchun ishonchli hamda mazmunli axborot taqdim etishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. International Accounting Standards Board. Conceptual Framework for Financial Reporting. 2018.
2. William Paton, A.C. Littleton. *An Introduction to Corporate Accounting Standards*. American Accounting Association, 1940.
3. Franco Modigliani, Merton Miller. “Dividend Policy, Growth, and the Valuation of Shares.” *Journal of Business*, 1961.
4. Xiao-Jun Zhang. “Accounting Conservatism and Investment Efficiency.” *Journal of Accounting and Economics*, 2013.
5. Avlokulov A.Z. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida moliyaviy natijalar ko‘rsatkichlarini aks ettirish xususiyatlari. // «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy elektron jurnali. №2, aprel, 2017 yil.
6. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2019. – 74 b.
7. Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta’minlash yo‘nalishlari. // *IQTISOD VA MOLIYA / EKONOMIKA I FINANSI* 2020, 3(135). 72-77 b.
8. Ibragimova I.R., Aktsiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo‘llashning xususiyatlari. // *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2023-yil, iyul. 151-158 b.

Copyright: ©2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

